

TOPONIMLARNI O'RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Usmonova Mohinur

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: M.M.M.U@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada toponimlarni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Toponimika va leksikografiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, geografik nomlarni etimologik va lingvistik jihatdan tadqiq etishda lug'atlarning o'рни tahlil qilingan. Shuningdek, toponimik lug'atlarning turlari, ularni tuzish tamoyillari hamda toponimlarni ilmiy tadqiq etishda leksikografik-statistik metodlarning ahamiyati ko'rib chiqilgan. O'zbek tilshunosligida yaratilgan toponimik lug'atlar va ularning ilmiy qiymati haqida fikr yuritilib, toponimlarning xalq tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy birliklar ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Toponimika, toponim, leksikografiya, toponimik lug'at, etimologiya, oykonim, gidronim, oronim, nominatsiya, topoindikator, lingvistik tahlil, geografik nomlar, onomastika, mikrotoponim, toponimik tadqiqot.

Toponimika fanining shakllanishi va rivojlanishi leksikografiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu ikki soha bir-birini to'ldirib keladi. Toponimika o'zining ilmiy muammolarini hal etishda, shuningdek, erishilgan natijalarni keng jamoatchilikka yetkazishda lug'atshunoslik tadqiqotlaridan samarali foydalanadi. Shu bilan birga, toponimik izlanishlar natijalari ko'plab leksikografik ishlanmalar uchun asosiy material manbai vazifasini bajaradi.

Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining boy ilmiy va madaniy merosida lug'atlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, lug'atlar til birliklarini saqlash, izohlash va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli toponimlarning kelib chiqishi, ma'nosi va tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda turli lug'atlarga murojaat qilish zaruriy ilmiy ehtiyoj hisoblanadi.

Toponimika va leksikografiya o'rtasidagi munosabatlarni ikki asosiy yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin. Birinchi yo'nalish toponimikaning leksikografiyaga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ushbu bog'liqlik bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, toponimlarning etimologik tahlilini amalga oshirishda turli xil lug'atlardan foydalaniladi. Bunday lug'atlar qatoriga tarixiy, geografik va lingvistik lug'atlar kiradi. Mazkur manbalar orasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari alohida o'rin egallaydi. Ushbu asar nafaqat turkiy tillarning qadimiy leksikasini o'zida mujassamlashtirgan, balki ko'plab geografik nomlarning semantik va etimologik xususiyatlarini yoritishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Turkiy toponimlarni maxsus o'rgangan olim V. Maxpirov "Devonu lug'otit turk"dagi geografik nomlarga bag'ishlangan tadqiqotida Koshg'ariy tomonidan geografik nomlar tarkibida uchraydigan qator leksemalarning ma'nosi sharhlanganligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, asarda berilgan ma'lumotlar ayrim toponimlarning ma'nosi va kelib chiqishini aniqlashda yagona ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, "Devonu lug'otit turk" nafaqat til tarixi, balki toponimika uchun ham muhim ilmiy manbadir.

Toponimik tadqiqotlar uchun muhim manbalardan yana biri vengriyalik sharqshunos olim Arminiy Vamberining ishlari hisoblanadi. H. Hasanovning “O’rta Osiyo joy nomlari tarixidan” asarida qayd etilishicha, Vamberi Markaziy Osiyoga sayohat qilgan va ushbu hududning geografik nomlariga bag’ishlangan maxsus lug’at yaratgan. “Markaziy Osiyoning geografik nomlari” deb nomlangan ushbu lug’atda qariyb 600 ga yaqin geografik nom va termin izohlangan. Lug’atda joy nomlari tarkibida uchraydigan turdosh so’zlar hamda etnonimlar alifbo tartibida berilib, ularning ma’nolari sharhlangan va misollar bilan boyitilgan.

Masalan, “ala” komponentining “ola, bula” ma’nolarini anglatishi va Olatov, Olako’l kabi nomlar tarkibida uchrashi ko’rsatiladi. Shuningdek, “buloq”, “jar”, “davon”, “ichki”, “eski”, “yangi”, “xo’ja” kabi ko’plab leksemalarning geografik nomlar tarkibidagi vazifasi izohlangan. Bu kabi lug’atlar nafaqat tarixiy-geografik ma’lumotlar manbai, balki toponimlarning semantik tuzilishini o’rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Toponimika va leksikografiya munosabatining ikkinchi ko’rinishi toponimik tadqiqotlar natijalarini lug’atlar shaklida ommalashtirish bilan bog’liqdir. Jahon tilshunosligida bu borada katta tajriba to’plangan. Turli mamlakatlarda toponimlarning ma’nosi, kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotiga bag’ishlangan maxsus lug’atlar yaratilgan. V.A. Nikonov, E.M. Murzayev, N. Kokov, S.O. Shaxmurzaev, E. Koychubayev va boshqa olimlarning lug’atlari shular jumlasidandir.

O’zbek tilshunosligida ham toponimik lug’atchilik ma’lum darajada rivojlangan. S. Qorayevning “Toshkent toponimlari”, “O’zbekiston viloyatlari toponimlari”, B. O’rinboyevning “Jizzax viloyati toponimlari”, “Asrlardek

barhayot nomlar”, Z. Do‘simov va X. Egamovlarning “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati” kabi asarlar o‘zbek toponimik lug‘atchiligining muhim namunalari hisoblanadi.

Shuningdek, S. Qorayevning “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?”, “Geografik nomlar ma’nosi” hamda P. G‘ulomov va R. Rahimbekov bilan hamkorlikda yaratilgan “Geografiyadan izohli lug‘at” asarlari ham mazmunan toponimik lug‘atlar sirasiga kiradi. Garchi geografik va toponimik lug‘atlar o‘z maqsadi, tuzilishi va material qamrovi jihatidan ayrim farqlarga ega bo‘lsa-da, mohiyatan ular geografik nomlarni izohlashga xizmat qiladi.

Z. Do‘simov va X. Egamov tomonidan tuzilgan “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati”da 700 dan ortiq toponimga izoh berilgan. Lug‘at sobiq ittifoq hududidagi geografik nomlarni qamrab olgan bo‘lib, unda joy nomlarining ma’nolari va kelib chiqishi sharhlangan. Boshqa ayrim lug‘atlarda ham geografik hududlar bo‘yicha qat’iy chegaralanish kuzatilmaydi. Bir qarashda bu holat kamchilik bo‘lib tuyulishi mumkin, biroq ilmiy jihatdan u turli hududlar va tillarga mansub toponimlarni qiyosiy o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Ayniqsa, turli topoasoslar, topoformantlar va topoindikatorlarni boshqa tillardagi shunga o‘xshash birliklar bilan taqqoslashda bunday lug‘atlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ular etimologik va qiyosiy tadqiqotlar uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Toponimika va leksikografiya o‘rtasidagi bog‘liqlikning uchinchi ko‘rinishi toponimik tadqiqotlarni boshlashdan oldin mavjud materiallarni tizimlashtirish, ularga leksikografik hamda statistik ishlov berish bilan bog‘liqdir. Bunday jarayonda maxsus so‘zliklar, kartotekalar va ters lug‘atlar yaratish muhim

ahamiyat kasb etadi. Afsuski, o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishda yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan va maxsus lug'atlar nashr etilmagan. Holbuki, mashhur toponimist A.V. Superanskaya o'z tadqiqotlarida toponimik izlanishlar uchun maxsus lug'atlar tuzish zarurligini bir necha bor ta'kidlagan.

Shunga qaramay, ayrim tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida ma'lum hududlarga oid toponimlarni yig'ib, ulardan tadqiqot materialli sifatida foydalanganlar. Ba'zi hollarda esa bu materiallar dissertatsiyalarga ilova tarzida kiritilgan. Masalan, S. Qorayev O'zbekiston aholi punktlari bo'yicha tuzilgan ro'yxatlar hamda Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan yig'ilgan boy kartoteka fondidan foydalangan. Shuningdek, S. Naimov Buxoro viloyatidan ikki yarim mingdan ortiq oykonim, A. Turobov Samarqand viloyatidan ikki mingdan ziyod etnotoponim, O. Begimov Janubiy O'zbekiston hududidan minglab eroniy qatlamga mansub toponimlar, A. Aslonov esa Shofirkon tumani hududidan mingdan ortiq geografik nomlarni to'plagan.

Toponimik tadqiqotlarga bag'ishlangan dissertatsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotgan hudud toponimlarining maxsus ro'yxatlarini tuzish va ularni ilmiy ishga ilova qilish an'anasi shakllana boshlagan. Bu holat o'zbek toponimikasida leksikografik-statistik metodlarning asta-sekin qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

Biroq amalga oshirilgan ishlarni hali to'liq mukammal deb bo'lmaydi. Har qanday ilmiy tadqiqotda bo'lgani kabi, toponimik izlanishlarda ham lug'atlar tuzish va statistik tahlildan foydalanish ilmiy natijalarning ishonchliligini oshiradi. Ayniqsa, makro va mikrohududiy toponimlarni o'rganishda ushbu metodlarning qo'llanishi tadqiqot natijalarining aniqligi va asoslanganligini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, muayyan hududning toponimik tizimini tadqiq etishdan oldin o'sha hududdagi barcha geografik nomlarni to'liq yig'ish, ularni ro'yxatga olish va maxsus hududiy toponimik lug'at yaratish maqsadga muvofiqdir. Faqat shundan keyingina toponimlarning lingvistik, tarixiy va etimologik tahliliga kirishish ilmiy jihatdan to'g'ri natija beradi. Bunday yondashuv tadqiqotning puxtaligi va ilmiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Toponimika va leksikografiya munosabatlarining ikkinchi muhim jihati esa lug'atlar yaratish jarayonida toponimik tadqiqotlar natijalaridan foydalanish bilan bog'liqdir. Xususan, qomusiy, izohli, etimologik va geografik lug'atlar tuzishda toponimik izlanishlar asosiy ilmiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Geografik nomlarning kelib chiqishi, ma'nosi va tarixiy taraqqiyotini o'rganmasdan turib mukammal lug'at yaratish qiyin.

O'zbek nomshunosligida toponimik lug'atlar son jihatidan ko'p emas. Shunga qaramasdan, mavjud lug'atlar o'zbek toponimikasining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Jumladan, Z. Do'simov va X. Egamovning "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati", S. Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?" va "Geografik nomlar ma'nosi", H. Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan", "Er tili", "Geografik nomlar siri" kabi asarlari o'zbek toponimik lug'atchiligining muhim namunalaridir.

Shuningdek, "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" ham muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur lug'atda, asosan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga xos bo'lgan geografik nomlar lingvistik jihatdan sharhlangan. Boshqa lug'atlarda esa O'zbekistonning zamonaviy va qisman tarixiy

toponimlariga izoh berilgan bo'lib, asosan ma'nosini aniqlash mumkin bo'lgan nomlarga tanlab olingan.

Toponimlar xalq hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini aks ettiradi. Shu sababli toponimik lug'atlar nafaqat lingvistik, balki tarixiy, etnografik va ma'rifiy ahamiyatga ham ega. Geografik nomlar orqali xalqning turmush tarzi, xo'jalik faoliyati, dunyoqarashi va tarixiy xotirasini o'rganish mumkin.

Toponimik lug'atlar turli maqsad va vazifalarga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Ular qatoriga izohli, imlo, ters, mikrotoponimik, talaffuzga oid, chet el toponimlari, tanlama, tarixiy hamda badiiy asarlarda uchraydigan toponimlar lug'atlari kiradi. Bundan tashqari, alohida hududlar yoki viloyatlar kesimida oykonimlar, gidronimlar va oronimlarga bag'ishlangan maxsus lug'atlar ham tuzilishi mumkin.

Ushbu lug'atlar orasida izohli toponimik lug'atlar alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday lug'atlar ilm-fan, ta'lim tizimi va keng kitobxonlar ommasi uchun eng zarur manbalardan hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy va zamonaviy geografik nomlarning ma'nosini tushuntirish hamda chet el toponimlarini izohlashda bunday lug'atlar katta amaliy qiymatga ega.

Izohli toponimik lug'atlar respublika miqyosida, alohida viloyatlar yoki yirik tarixiy-geografik hududlar bo'yicha tuzilishi mumkin. Bunday lug'atlarni yaratishda muayyan leksikografik tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Eng avvalo, izohlanishi lozim bo'lgan toponimlar tanlanib, maxsus toponimik so'zlik shakllantiriladi. Mikrotoponimik lug'atlarda esa hududdagi barcha joy nomlari qamrab olinishi sababli alohida saralash zarurati deyarli bo'lmaydi.

Shunday qilib, toponimika va leksikografiya o'rtasidagi munosabatlar ko'p qirrali xarakterga ega. Toponimik tadqiqotlar lug'atshunoslik uchun boy material manbai bo'lib xizmat qilsa, leksikografiya esa geografik nomlarni tizimlashtirish, izohlash va ommalashtirish imkonini yaratadi. Shu bois toponimik lug'atlar yaratish va ularni ilmiy asosda takomillashtirish o'zbek onomastikasining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Natijada geografik nomlarning tarixiy, lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqurroq o'rganish hamda milliy madaniy merosni saqlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanov H. *O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan*. – Toshkent: Fan, 1965.
2. Hasanov H. *Geografik nomlar siri*. – Toshkent: O'zbekiston, 1985.
3. Qorayev S. *Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?* – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
4. Qorayev S. *Toshkent toponimlari*. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Qorayev S. *O'zbekiston viloyatlari toponimlari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005.
6. Do'simov Z., Egamov X. *Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi, 1977.
7. O'rinboyev B. *Jizzax viloyati toponimlari*. – Jizzax, 1992.
8. O'rinboyev B. *Asrlardek barhayot nomlar*. – Samarqand, 2003.
9. Superanskaya A.V. *Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo*. – Moskva: Nauka, 1973.
10. Nikonov V.A. *Kratkiy toponimicheskiy slovar*. – Moskva: Mysl, 1966.
11. Mahmud Koshg'ariy. *Devonu lug'otit turk*. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
12. Begmatov E. *O'zbek onomastikasi masalalari*. – Toshkent: Fan, 2013.